

SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODI VA ASARLARINING DUNYO MIQIYOSIDA O'RGANILISHI VA TADQIQ QILINISHI.

Sattorova Sabohat Safarali qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

s.sattorova@dtpi.uz

93 795 08 14

Anotatsiya: Maqolada XX asr va undan keyingi davrda o'zbek adabiyotida peyzaj janrida takrorlanmas asarlar yaratgan ijodkor Sh. Xolmirzayevning ijod yo'li, asarlarining dunyo miqiyosida o'rganilishi va tahlil qilinishi haqida tadqiqot olib boriladi. Maqolada nafaqat o'zbek, balki, boshqa millat vakillarining adib asarlari yuzasidan qilgan ilmiy ishlarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Psixologik portret, peyzaj, "Olabo'ji", "Notanish odam" hikoyalari, kontseptual metafora, "Bandi burgut" qissasi, lirik tasvir, Parsellyasiya, mantiqiyligingvistika mohiyati, kommunikativ aloqa.

XX asr o'zbek nasrining 60–70 yillardan keyingi taraqqiyotini o'ziga xos yozuvchi ijodisiz tassuvur qilish qiyin. Shukur Xolmirzayev XX asr o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli yozuvchidir. U o'zining yuksak badiiy mahorat bilan yaratgan betakror nasri bilan o'zbek xalqi ma'naviyatining yuksalishida o'ziga xos o'ringa ega.

Dunyo adabiyotining zabardast vakillari hisoblangan S.Tomson, E.Xyemenguyey, J.London kabi tabiat va inson mavzusidagi asarlar yozgan ijodkorlari qatoriga qo'ya olamiz.

Shukur Xolmirzayevning tabiatni va inson munosabatilariga bag'ishlangan hikoyalari o'zining rang-barang badiiy talqiniga ega. Bu jihat yozuvchining nafaqat hikoyalarida, balki uning qariyib barcha asarlarida – pyesa, qissa romanlarda ham ko'zga tashlanadi, ularda doim tabiatga murojaat etiladi, o'quvchiga tabiatning yangi-yangi sir-asrorlari oshkor qilinadi. Chungi tug'ilgan yurtidan uzoqda yashasada, tabiat, uning go'zalliklari hamma hammasi yozuvchining qon qoniga ongiga singib qolgan. U o'zi tug'ilib o'sgan Boysundan, hatto ruhan ham ajralib yashay olmaydi. Adabiyotshunos Y.Solijonov tabiat

tasvirida yozuvchining detallarga alohida ahamiyat berish haqida quyidagi ifodalaydi. “Shukur Xolmirzayevning asarlarida eng ko‘p qo‘llaniladigan detallar bu tabiat unsurlari, gullar, qushlar, hashoratlar va hayvonlardir. [1: 145-160] Shukur Xolmirzayevning asarlarida tabiat gapiradi, harakat qiladi, ko‘rkini namoiy etish uchun gullab, bizni maftun etadi. Ruhiyatimizga osoyishtalik bag‘ishlab umrimizni uzaytiradi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida tabiat o‘quvchiga estetik zavq lirik kayfiyat bag‘ishlovchi vosita, siqilgan yurakka taskin beruvchi maskan sifatida talqin qilinadi.

Jonli psixologik teran dialoglar yaratishda Shukur Xolmirzayev narsning baland cho‘qqilariga ko‘tarila oldi.

Shukur Xolmirzayev ijodiyotini o‘rganar ekanmiz o‘zgachalik, yangilanish va tabiat bilan bog‘liqlilik bo‘lganligi tufayli ilmiy izanishlar soni ham anchayin yuqoridir. Xususan, Sila Genning tadqiqot ishi “Shukur Xolmirzayev hikoyalarida vaqtning o‘tishini tasvirlashda metaforalardan foydalanish” nomli maqolasida konseptual metafora nazariyasi nuqtai nazaridan tekshiradi. Tadqiqot maqsadi Shukur Xolmirzayev hikoyalari asosida zamonning o‘tishi haqidagi metaforalar Ularning tashqi qiyofasini o‘zbek tilida aks ettiradi. Kirish qismida vaqt tushunchasi va kontseptual metafora nazariyasi haqida umumiy tushuncha berilgan. Vaqt fazoviy ma’noda kontseptsiyalangan old-orqa va oldin-keyin tushunchalari aks ettiruvchi metaforalar orqali ko‘rib chiqiladi. [2]

Raisov Shamsiddin Rashid o‘g‘lining “The role of inner – feelings to construct Shukur Xolmirzayev” nomli maqolasida personaj harakterini aks ettirishda psixologik harakterning o‘rni, psixologik portret, qahramon tashqi ko‘rinishi orqali aks ettiriladigan psixologik jarayon haqida gap boradi [3].

Shukur Xolmirzayev asarlari matn jihatdan ham mukammal yaratilgani sababidan tilshunos olimlarimiz ham tadqiqot obyekti sifatida foydalanishgan. Bulardan, Botirova Maxliyoning “Badiiy matnlarda parsellyatli birliklar (Shukur Xolmirzayev Asarlari Misoldida)” maqolasida Maqolada badiiy asarlarda parsellyatli birliklar tahlilga tortildi. Parsellyasiyaning bevosita mantiqiy –lingvistik mohiyati mavjud sintaktik butunlikni kommunikativ bo‘laklashdan, ilovaning bevosita mantiqiy lingvistik mohiyati esa mavjud sintaktik butunlikka boshqa sintaktik birlikni ilova qilishdan iborat. Ana shu jiddiy farqni hisobga olgan ayrim tadqiqotchilar parsellyasiya va ilovaning asosi gap bilan

munosabatidagi prinsipial o‘ziga xoslikka e’tiborini qaratadilar. Uning hikoyalarida zamon o‘tishini aks ettiruvchi majoziy iboralar ko‘rib chiqiladi [5: 1475 – 1479].

Shoxista Mahmudova Abdusalomovnaning “Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ijodkor obrazining xarakteri va portreti tasviri” [6], maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining iste’dodli yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning “Yozuvchi”, “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi” kabi hikoyalarida ijodkor obrazining xarakteri va portreti tasvirini yaratishdagi mahorati badiiy-ilmiy fikrlar asosida tahlilga tortilgan.

Koziyeva Shahrizoda o‘zining “A. symbol of hope in the story of Shukur Kholmirzayev” [7] maqolasida ramzlar masalasiga alohida to‘xtalib o‘tgan.

Hamidova Muhayyoxon Obidovnaning “Nasriy asarlarda obrazlar tahlili” nomli maqolasida XX asr o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan ijodkorlardan biri Shukur Xolmirzayev sanaladi. Uning har bir asarida o‘zi tug‘ilib o‘sgan Boysun tabiat, ayniqsa, undagi bolalik davri o‘tgan yerlar o‘ziga xos tarzda qalamga oliganligi bilan kitobxon e’tiborini tortadi. Mazkur maqolada adibning “Olabo‘ji” romanda obrazlar tabiati xususida fikr yuritilgan [8].

Norboyeva Zuhraxonning “Shukur Xolmirzayevning ‘Notanish odam’ hikoyasidagi inson va tabiat tushunchalari” maqolasida adabiyot olamiga milliy hikoya janri orqali kitobxonlarni qalbidan joy olgan Shukur Xolmirzayevning “Notanish Odam” hikoyasidagi g‘oyalari tahlil qilingan [9: 36, 38].

Tangirov Ro‘ziboy Xudayshukurovichning “Shukur Xolmirzayev ijodlaridagi milliy qadiriyatlarning badiiy – falsafiy tomonlarini tahlil qilish” [10: 619, 620].

Shukurova Bahor Boltayevnaning Human imagery and skill of the writer in modern Uzbek story telling” [11: 78, 82]

Doç. Dr. Emek Üşenmezning “Modern Özbek edebiyatlnln ana kaynaklari” maqolasida o‘zbek hikoyachiliginining rivojiga katta hissa qo‘sghan yozuvchi sifatida tadqiq qilinadi [12: 2541-2551]

Qo‘ziyeva Shahrizoda “Shukur Xolmirzayev qissasidagi burgut obrazi” Maqolada Shukur Xolmirzayevning “Bandi burgut” qissasida ozodlik uchun kurashgan, ota-onasi

yaqinlaridan uzoqda, asirlikda, ozodlik yo‘lida halok bo‘lgan burgutning iztiroblari haqida so‘z boradi [13: 2788-0389].

Selahittin Tolkun “Sovyet Dönemi ve Sonrası Özbek Edebiyatında ‘Basmacılık’ Konusu” maqolasida Shukur Xolmirzayevning asarlariga ham to‘xtatilib o‘tilgan [14].

Bozorova Ro‘zigul Xurramovna “Shukur Xolmirzayev asarlarining insonlar hayotida etnopsixologik ahamiyati va “odam” asarining boshqa xalqlar ham tanishishi uchun inglizcha tarjimasi” maqolasida Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning asar qahramonlari haqida etnopsixologik qarashlar, ularning milliy, madaniy, ma’rifiy qadriyatlari borasida ham so‘z boradi. Insonlar tabiatini, ularning urf-odatlari, murakkab davrlarni o‘z ichiga olgan hayot tarzi haqida ham mulohazalar yuritiladi [15].

Akhmad Baisov “The early roots of realistic stories” [16:62,66]

Tangirov Ro‘ziboy Xudayshukurovich “Shukur Xolmirzayev ijodida milliy qadiryatlarning badiiy – falsafiy qarashlarini tahlil qilish” [17:36]

Mohichehra O‘rolova “The Mythological Model in Shukur Xolmirzayev’s Story “Qadimda bo‘lgan ekan” [18]

Kadirova Ruxsora Ravshanbek qizi “Shukur Xolmirzayev qissalarida boalar ruhiyatining ochib berilishi” [19]

“Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti” risolasi, akademik B.Nazarovning “Shukur Xolmirzayev” nomli ijodiy portreti yaratilgan. Bundan tashqari yozuvchi hikoyalari haqida U.Normatov, S.Mamajonov, Q.Yo‘ldoshev, H.Boltaboyev, O.Otaxonov, R.Qo‘chqorovlarning adibning qissa to‘g‘risida M.Qo‘shtonov, A.Rasulova, M.Olimov; romanlari haqida U.Nurmatov, O.Tog‘ayev, I.G‘ofurov, S.Sidiqov va boshqa¹ adabiyotshunos olimlarning maqolalari e’lon qilingan. Biroq bu tadqiqot va maqolalarda Sh. Xolmirzayev ijodining ayrim qirralari yoritilgan edi. Sh.Xolmirzayev hikoyachiligidagi mahorati, badiy so‘z san’ati tasvir uslubi haqida ilmiy tadqiqot ishlar ham olib borilgan. Jumladan, G.N.Tovaldiyeva (2001). Sh.Doniyorova (2001) kabi adabiyotshunoslardan yozuvchining hikoyachiligidagi o‘ziga xos tasvir uslubi, voqeylekni badiiy idrok etish tamoyillari haqida ilmiy xulosalar berganlar. Bundan tashqari “Shukur

Xolmirzayev zamondoshlari xotirasi” (2010) kitobida Sh.Xolmirzayevga zamondosh ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan adib mahoratining, yetuklik darajasining o‘ziga xos tomoni haqida noyob xotiralar jamlangan. Olim Toshboyevni “Abadiy zamondosh”(2018) kitobida yozuvchi asarlarining yozilish tarixi, sababi, yozuvchi shaxsiyati fikr yuritiladi.

Shukur Xolmirzayev ijodini o‘rgangan olimlar Saodat Mamayusupova, Qurbonov Dilmurod, Shoira Doniyorova, Toshpo‘latov Akrom Xaydarovich, Shaxobov Kamoliddin Bilolovichlar

Shukur Xolmirzayev XX asr o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘sghan yozuvchidir. U o‘zining hikoya yaratish mahorati bilan adabiyot maydonida munosib iz qoldirgan. Uning betakror va jonli tarzda yaratilgan asarlari o‘zbek adabiyoti nasrida o‘z so‘zini ayta olgan, xalqimiz ko‘nglidan munosib o‘rin olgan va o‘z o‘rnini topgan adibdir. Uning merosini o‘rganish bizgacha kelgan ijodiy evolutsiyasini to‘g‘ri va haqchil idrok qilishga, yozuvchining badiiy uslubining o‘ziga xosligini aniqlash va ijodiy portretlarini kashf qilishga yo‘l ochadi. Yuqoridaq qator ilmiy izlanishlar ham yozuvchi mahoratining nechog‘lik keng, ijodining neqadar ulkan ekanligidan darak beradi. Maqolaning boshlanmasida dunyoning zabardast adiblari Jek London, Ernest Seton Tomsonga o‘xhatilinishi ham bejizga emas ekanligini bejizga emas ekanligini go‘yoki bejizga emas ekanligini ushbu tahlillar ko‘rsatib qo‘ygandek bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sila Gen “Zamanin gechishine ilishkin metaforlar: Shukur Xolmirzayev”. Sosyal bilimler enstitüsü dergisi, cilt 24, sayı 1, 2015, sayfa 145-160

<https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/364893>

2. Raisov Shamsiddin Rashid o‘g‘li. “The role of inner-feelings to construct Shukur Xolmirzayev’s stories” Journal “Actual problems of science and education in the face of modern challenges”

3. Botirova Maxliyo. “Badiiy matnlarda parsellyatli birliklar (Shukur Xolmirzayev Asarlari Misolida)”. Journal “Miasto Przyszlosci”. 2024-12-03. Page 1475 – 1479.

<https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/5884/5564>

4. Shoxista Mahmudova Abdusalomovnaning “Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ijodkor obrazining xarakteri va portreti tasviri. Journal. “Izlanish samaralari” № 9-mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy – nazariy anjumani.

<https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/view/1067/1667>

5. Koziyeva Shahrizoda. “A. symbol of hope in the story of Shukur Kholmirzayev”. Journal. “Gospodarka I innowacje” Volume: 24 | 2022. Page.582-584.

6. Hamidova Muhayyoxon Obidovnaning “Nasriy asarlarda obrazlar tahlili”.

<https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/view/161/152>

7. Norboyeva Zuhraxon. “Shukur Xolmirzayevning “Notanish odam” hikoyasidagi inson va tabiat tushunchalari”. Journal. “Innovation the modern education system”, Page: 36

8. Tangirov Ro‘ziboy Xudayshukurovichnin “Shukur Xolmirzayev ijodlaridagi milliy qadiryatlarning badiiy – falsafiy tomonlarini tahlil qilish”. Journal: “Gospodarka I innowacje” Ido. 3.2023.Page: 619-622.

https://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/1702/1594

9. Shukurova Bahor Boltayevnaning Human imagery and skill of the writer in modern Uzbek story telling”. Journal: SJIF 5.954 2022. Page No.-78-82.

10. Üşenmez, E. (2021). “Modern Özbek edebiyatının ana kaynakları”, Journal of social, humanities and administrative sciences, 7(47):2541-2551

11. Qo‘ziyeva Shahrizoda “Shukur Xolmirzayev qissasidagi burgut obrazi”. Journal “Journal of multidisciplinary innovations”. Volume 5, May, 2022. ISSN (E): 2788-0389.

<https://www.peerianjournal.com/index.php/czjmi/article/view/189/160>

12. Selahittin Tolkun “Sovyet Dönemi ve Sonrası Özbek Edebiyatında ‘Basmacılık’ Konusu”

<https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/357577>

13. Bozorova Ro‘zigul Xurramovna “Shukur Xolmirzayev asarlarining insonlar hayotida etnopsixologik ahamiyati ahamiyai va “odam” asarining boshqa xalqlar ham tanishishi uchun inglizcha tarjimasi” Journal “Finland, Helsinki international scientificonline conference”

<https://interoncof.com/index.php/finland/article/view/376/368>

14. Akhmad Baisov “The early roots of realistic stories”. Journal <https://mentaljournal-jspu.uz/index.php/mesmj/article/view/544/578>

15. Tangirov Ro‘ziboy Xudayshukurovich Shukur Xolmirzayev ijodida milliy qadiryatlarning badiiy – falsafiy qarashlarini tahlil qilish. Journal “Gospodarka I innowacje” Volume: 36|2023.

https://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/1702/1594

16. Mohichehra O’rolova “The Mythological Model in Shukur Xolmirzayev’s Story “Qadimda bo‘lgan ekan”

<file:///D:/yuklanganlar/YO'ITJ+0803.pdf>

17. Kadirova Ruxsora Ravshanbek qizi “Shukur Xolmirzayev qissalarida boalar ruhiyatining ochib berilishi” Journal. “So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi” 6-jild, 11-son.respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.11.2023.

https://www.researchgate.net/profile/Aryslanbek-Allamuratov/publication/377526045_So'ngi_ilmiy_tadqiqotlar_nazariyasi/